

“Pandigon” mahalla fuqarolar yig’inining yangidan qurib bitkazilgan binosi foydalanishga topshirildi

Bugun Rishton tumanidagi “Pandigon” mahalla fuqarolar yig’inining yangidan qurib bitkazilgan binosi foydalanishga topshirildi. Tantanali marosimda tuman IIB boshlig’i, 3-sektor rahbari X. Tashpo’latov, Mahalla va nuroniyarlarni qo’llab-quvvatlash bo’limi boshlig’i X. Xojixonov, tuman Nuroniyalar kengashi raisi T. Abdurahmonov, mahalla faollari, mehnat faxriylari va keng jamoatchilik vakillari ish tirok etdi.

- Hozirda 4112 nafar aholi yashaydigan mahallamizning idorasi ko’rimsiz edi, – deydi “Pandigon” MFY raisi M. Mahkamov – Ochig’i, mahallamizning alohida binosi mavjud emas edi. Hukumatimizning e’tibori, tuman hokimiva mahallamiz faollarning tashabbuslari bilan mahalla idorasi uchun zamonaviy va ko’rkam yangi bino qurib berilganligidan juda xursandmiz. Mahalla raisi, hokim yordamchisi va yoshlari yetakchilari, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori uchun alohida-alohida xonalar mavjud bo’lgan binoda samarali faoliyat yuritish uchun zarur barcha sharoitlar yaratilgan.

Mazkur ob’ekt qurilishiga mahalla fuqarolari tashabbusi bilan jamg’arilgan mablag’lar (hashar yo’li bilan) evaziga 350 million so’mdan ortiq mablag’ sarf qilindi.

Bugun Pandigonliklar uchun bayram. Sababi bugun mahalla ahliga yangitdan keng, shinam va zamonaviy mahalla binosi tuhfa etildi. Binoda xodimlarning ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, aholining bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish uchun bu yerda ma’naviyat xonasi ham ajratilgan bo’lib, u yerda badiiy, ilmiy hamda ommabop kitoblar javondan joy olgan.

Binoning ochilish marosimida so’zga chiqqanlar mahallaning keksa-yu yoshi olib borilayotgan oqilona siyosatimizga, yaratib berilayotgan sharoitlarga shukronalar aytishdi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-10-08 17:23:44